



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**

TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT



**TERMIZ DAVLAT MUHANDISLIK VA
AGROTEKNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

Davlat oliy ta'lim tashkiloti

61010200 – Sport faoliyati: voleybol
Bakalavriat



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**


61010200 – Sport faoliyati: voleybol

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

**TERMIZ DAVLAT MUHANDISLIK VA AGROTEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI**

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



Rais: RAXMONOV RAUF RASULOVICH

Buxoro davlat universiteti

falsafa doktori (PhD)



A'zo: KETEVAN KOBALIA

Georgian State University of Sport

falsafa doktori (PhD), professor

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260061
Xulosa raqami	1053
Xulosa sanasi	18.06.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"TERMIZ DAVLAT MUHANDISLIK VA AGROTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI" DAVLAT MUASSASASI
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Surxondaryo viloyati, Termiz shahri, Guliston mahallasi, Islom Karimov ko'chasi, 288-A-uy. Guvohnoma: MAS № 0000310, 08.07.2026.
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Sport faoliyati: voleybol
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	61010200
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	MAS № 0000310, 08.07.2026
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Davlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	61010200 – Sport faoliyati: voleybol
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	61010200 – Sports Activity: Volleyball
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	61010200 – Спортивная деятельность: волейбол
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kunduzgi / kechki
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	240 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	4 yil / 4,5 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	6-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	Murabbiy, jismoniy tarbiya o'qituvchisi
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	200 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Surxondaryo viloyati, Termiz shahri, Guliston mahallasi, Islom Karimov ko'chasi, 288-A-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofoq / muvofoq emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofoq / qisman muvofoq / muvofoq emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Qisman muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Qisman muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

Taqdim etilgan hujjatlar, istiqbolli rivojlantirish rejas, ichki baholash materiallari hamda ta'lim sifatini ta'minlashga oid me'yoriy-huquqiy asoslar tahliliga ko'ra, Termiz davlat muhandislik va agrotekhnologiyalar universitetida 61010200 – “Sport faoliyati: voleybol” bakalavriat ta'lim dasturini samarali amalga oshirish uchun zarur tashkiliy-boshqaruv tizimi shakllantirilgan. Ta'lim dasturiga mas'ul tarkibiy tuzilmalarning vakolatlari, vazifalari va funksiyalari aniq belgilangan bo'lib, ular o'rtasidagi hamkorlik tegishli tartiblar asosida tashkil etilgan. Ta'lim jarayonini rejalashtirish, monitoring qilish, natijalarini tahlil etish va ichki sifatni ta'minlash mexanizmlari yo'lga qo'yilgan. Istiqbolli rivojlantirish rejasida dasturni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar va kutilayotgan natijalar belgilangan. Mazkur rejaning ichki baholash amaliyoti bilan birgalikda qo'llanilishi mavjud holatni muntazam o'rganish, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va ta'lim dasturi sifatini izchil oshirib borish imkonini beradi. Dastur faoliyatini rejalashtirish va takomillashtirish jarayonlariga professor-o'qituvchilar, talabalar, ish beruvchilar hamda boshqa manfaatdor tomonlarni jalb etish mexanizmlari mavjud. Umuman olganda, tashkiliy boshqaruv, istiqbolli rivojlantirish, ichki baholash va sifatni ta'minlash tizimi ta'lim dasturini belgilangan talablar asosida amalga oshirish uchun zarur sharoitlarni yaratadi.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

Ichki baholash hisoboti, me'yoriy-huquqiy hujjatlar, o'quv rejalari, malaka talablari, hamkorlik shartnomalari va boshqa tasdiqlovchi materiallar tahliliga ko'ra, 61010200 – “Sport faoliyati: voleybol” bakalavriat ta'lim dasturining mantiqiy tuzilishi va mazmuni belgilangan talablarga muvofiq shakllantirilgan. Dastur Davlat ta'lim standartlari va Milliy malakalar ramkasining 6-darajasi asosida ishlab chiqilgan

bo'lib, unda ta'lim maqsadlari, o'qitish natijalari va egallanishi lozim bo'lgan kasbiy kompetensiyalar o'zaro uyg'unlashtirilgan. Fanlarning o'quv rejasida mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirilishi talabalarning nazariy bilimlari va amaliy ko'nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiladi. Tegishli tashkilotlar va sport klublari bilan hamkorlik shartnomalarining mavjudligi dasturning amaliy yo'naltirilganligini kuchaytiradi hamda talabalarning real sport muhitida tajriba orttirishi, mashg'ulotlarni tashkil etishi va murabbiylik kompetensiyalarini shakllantirishi uchun imkoniyat yaratadi. Umuman olganda, ta'lim dasturining tuzilishi, mazmuni va amaliy yo'naltirilganligi belgilangan me'yoriy hamda malaka talablariga mos keladi.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi

Taqdim etilgan tahliliy materiallar va ichki hujjatlarni o'rganish natijasida 61010200 – "Sport faoliyati: voleybol" bakalavriat ta'lim dasturi bo'yicha o'quv jarayoni tizimli, tegishli normativ-huquqiy asoslar va bosqichma-bosqich rejalashtirish tamoyillari asosida tashkil etilgani aniqlandi. O'quv reja, fan dasturlari va sillabuslar ta'lim dasturining maqsadlari hamda kutilayotgan o'qitish natijalari bilan muvofiqlashtirilgan. Nazariy va amaliy mashg'ulotlarning o'zaro uyg'unligi talabalarning voleybol yo'nalishiga oid kasbiy bilim, ko'nikma va murabbiylik kompetensiyalarini izchil shakllantirishga xizmat qiladi. Biroq talabalarning baholash tizimi bo'yicha fikr-mulohazalarini o'rganish va ularni hisobga olish mexanizmini nazarda tutuvchi 3.6-mezon bo'yicha ayrim kamchiliklar mavjud. Xususan, talabalar o'rtasida o'tkazilgan so'rovlar natijalari hamda ular asosida amalga oshirilgan chora-tadbirlarni tasdiqlovchi dalillar yetarli darajada taqdim etilmagan. Shu sababli 3.6-mezon qisman muvofiq bo'lib, talabalar fikrini muntazam o'rganish, natijalarni hujjatlashtirish va ular asosida ko'rilgan choralarni dalillar bilan asoslash mexanizmini takomillashtirish zarur. Umuman olganda, ta'lim jarayoni va baholash tizimi yo'nalishi belgilangan talablarga muvofiq keladi.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi

Taqdim etilgan ichki baholash materiallari, normativ-huquqiy hujjatlar va institutsional ma'lumotlar tahliliga ko'ra, universitetda talabalar faoliyati bilan bog'liq jarayonlar tizimli ravishda tashkil etilgan hamda ularning asosiy yo'nalishlari amaldagi davlat talablari va oliy ta'lim tashkilotining ichki me'yoriy hujjatlariga muvofiqlashtirilgan. Ta'lim dasturi bo'yicha qabul mezonlari va parametrlari aniq hamda ochiq belgilangan bo'lib, abituriyentlarning zarur ma'lumotlardan

foydalanishi uchun tegishli imkoniyatlar yaratilgan. Talabalarni o'qishga qabul qilish, kursdan kursga o'tkazish, o'qishni ko'chirish, qayta tiklash va boshqa harakatlarini tartibga soluvchi mexanizmlar mavjud. Sport yo'nalishining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, talabalarning o'quv jarayoni bilan bir qatorda mashg'ulot va musobaqalardagi yuklamalarini hisobga olish, ularga zarur tashkiliy va maslahat yordamini ko'rsatish muhim ahamiyat kasb etadi. Mavjud qo'llab-quvvatlash mexanizmlari talabalarning o'quv, mashg'ulot va musobaqa faoliyatini o'zaro muvofiqlashtirish hamda ta'lim dasturini muvaffaqiyatli o'zlashtirishiga xizmat qiladi. Umuman olganda, talabalarni qabul qilish, ularning harakatini tartibga solish va qo'llab-quvvatlash tizimi belgilangan talablarga muvofiq shakllantirilgan.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi

61010200 – “Sport faoliyati: voleybol” bakalavriat ta'lim dasturi bo'yicha kadrlar salohiyati, ilmiy-pedagogik ta'minot, fanlar tarkibi va pedagoglarni ishga qabul qilish tizimi amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida shakllantirilgan. Professor-o'qituvchilar tarkibida ilmiy darajaga ega pedagoglarning ulushi belgilangan 35 foizlik me'yoriy ko'rsatkichdan yuqori bo'lib, bu ta'lim dasturining ilmiy salohiyatini mustahkamlash va o'quv jarayonini malakali kadrlar bilan ta'minlashga xizmat qiladi. Voleybol yo'nalishida faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilarning ilmiy-pedagogik tayyorgarligi amaliy murabbiylik tajribasi bilan uyg'unlashgan bo'lib, bu nazariy bilimlarni sport amaliyoti bilan bog'lash, ilg'or tajribalarni talabalarga yetkazish va ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish imkonini beradi. Pedagog xodimlarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini muntazam yangilab borishga qaratilgan malaka oshirish mexanizmlari mavjud hamda ularning ilmiy-pedagogik faoliyatini rivojlantirish uchun tegishli imkoniyatlar yaratilgan. Umuman olganda, kadrlarning ilmiy salohiyati, kasbiy malakasi va amaliy tajribasi ta'lim dasturini belgilangan talablar asosida sifatli amalga oshirish imkonini ta'minlaydi.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universitetida 61010200 – “Sport faoliyati: voleybol” bakalavriat ta'lim dasturini samarali amalga oshirish uchun zarur moddiy-texnik, o'quv-uslubiy va axborot-resurs bazasi shakllantirilgan. Mavjud sport inshootlari, mashg'ulot zallari, sport inventarlari va boshqa o'quv-amaliy vositalar nazariy hamda amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish, talabalarning sport mahorati va murabbiylik kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. O'quv-uslubiy manbalar va axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatlari ham yaratilgan. Shu

bilan birga, inklyuziv ta'lim olish uchun bino va jihozlarni moslashtirish, maxsus o'quv materiallari bilan ta'minlash hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan to'laqonli foydalanish imkoniyatlarini nazarda tutuvchi 6.4-mezon bo'yicha ayrim kamchiliklar mavjud. Mazkur sharoitlarni alohida ta'lim ehtiyojlariga ega shaxslarning talablaridan kelib chiqib yanada takomillashtirish va belgilangan me'yorlarga to'liq muvofiqlashtirish zarur. Shu sababli 6.4-mezon qisman muvofiq bo'lib, umuman olganda, ta'lim dasturining moddiy-texnik va axborot-resurs ta'minoti belgilangan talablarga muvofiq keladi.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:

- ✓ Talabalarining baholash tizimi bo'yicha fikr-mulohazasini o'rganish va uni hisobga olish mexanizmi (3.6-mezon) dalillar bilan yetarli asoslanmagan.
- ✓ Inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallari hamda AKT vositalaridan foydalanish imkoniyati (6.4-mezon) qisman muvofiq deb baholandi.
- ✓ Ayrim indikatorlar bo'yicha dalillovchi materiallar bazasini kengaytirish maqsadga muvofiq.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ Talabalar so'rovlari natijalari va ular asosida ko'rilgan choralarni dalillar bilan hujjatlashtirish.
- ✓ Inklyuziv ta'lim uchun binolar va jihozlarni moslashtirish, maxsus o'quv materiallarini yaratish.
- ✓ Sport inshootlari va mashg'ulot inventarini yangilab borish.
- ✓ Sport klublari bilan amaliyot hamkorligini kengaytirish.


8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Baholash natijalariga ko'ra, "Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti" davlat muassasasida 61010200 – "Sport faoliyati: voleybol" bakalavriat ta'lim dasturi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar, o'quv-uslubiy materiallar, tashkiliy-boshqaruv mexanizmlari, kadrlar salohiyati hamda moddiy-texnik baza kompleks ravishda tahlil qilindi. Ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur tashkiliy-

boshqaruv tizimi yo'lga qo'yilgan va istiqbolli rivojlantirish rejasi ishlab chiqilgan. Dastur mazmuni Davlat ta'lim standartlari hamda Milliy malakalar ramkasi talablari asosida shakllantirilgan, o'quv jarayoni kredit-modul tizimiga muvofiq tashkil etilgan. Professor-o'qituvchilarning ilmiy-pedagogik salohiyati, kasbiy malakasi va amaliy murabbiylik tajribasi belgilangan talablarga javob beradi, mavjud moddiy-texnik hamda axborot-resurs bazasi esa dasturni amalga oshirish uchun zarur imkoniyatlarni yaratadi. Barcha boblar umumiy jihatdan muvofiq bo'lib, talabalarning baholash tizimi bo'yicha fikr-mulohazalarini o'rganish va hisobga olishga oid 3.6-mezon hamda inklyuziv ta'lim sharoitlarini ta'minlashga oid 6.4-mezon qisman muvofiq deb baholandi. Ushbu mezonlar bo'yicha aniqlangan kamchiliklar ta'lim dasturini amalga oshirishga to'sqinlik qilmaydi va tegishli mexanizmlar hamda shart-sharoitlarni yanada takomillashtirishga qaratilgan tavsiyaviy xususiyatga ega. Umuman olganda, 61010200 – "Sport faoliyati: voleybol" bakalavriat ta'lim dasturi belgilangan akkreditatsiya mezonlariga mos kelishi sababli MUVOFIQ deb baholandi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	02.07.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	4-son
Yakuniy qaror:	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaae.uz
www.nqaae.uz



@nqaaeuz



@nqaaeuzbot

